

## MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODI

*Qo'shtepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
G'ofurova Malohat Abdukarimovna*



Muhammad Yusuf 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o'qib, uni 1978 yilda bitirdi. Shoir 1978-1980 yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986 yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992 yillarda G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1992-1995 yillarda «O'zbekiston ovozi» gazetasida, O'zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995-1996 yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o'qidi. 1997 yildan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinnbosari lavoshmida ishladi. M. Yusuf O'zbekistondagi eng yosh xalq shoiri (1998) hisoblanadi. Uning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan edi. Bevaqt o'lim shoirni oramizdan olib ketdi. Kitoblari va she'rlari: «Tanish teraklar» (1985, birinchi to'plami), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudag'i qiz» (1989), «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992), «Osmonimga olib ketaman», «Kumush», «Kokilingni kim kesdi», «Aldov», «Turkman qiz», «Yur, Muhammad, ketdik bu yerdan», «Yolg'onchi yor», «Qora quyosh» (doston) va boshq. Muhammad Yusuf «Men o'z bilganimdan qolmadim» she'rida she'r va shoirlikni shunday anglaydi. Quvroq bo'l deyishdi. Yolg'on ham kerak, Jindak xushomad ham, quloq solmadim. Oqni oppoq ko'rdim, qorani - qora Men o'z bilganimdan qolmadim. Hozirgi davr o'zbek milliy' adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida oddiy oilada tavallud topdi. O'rta maktabni tugatgandan so'ng respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi. 1978—1980 yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980—1986 yillarda «Toshkent oqshomi» ro'znomasida, 1986—1992 yillarda esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, hozir esa «O'zbekiston ovozi» ro'znomasida faoliyat ko'rsatmoqda. U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi

sifatida keng kitobxonlar qalb kirib ulgurgan. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan so'ng «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989) «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rindi. Shoirniq «Mehr qolur» she'rini eslang-a: O'tar inson yaxshi-yomoni, Mehr qolur, muhabbat qolur. Shoir she'riyati ham shunday. Mehringizda, qalbingizda qo'shiq bo'lib qoladi. Ona diyor va istiqlol kuychisi ... Muhammad Yusuf noyob iste'dot egasi, odamlarni mehribon, sofdir, mard va kamtarin inson edi... O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26- aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tavallud topgan. U Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o'g'il, uch qiz farzandlari ichida erka dilbandi bo'lib ulg'aygan. Noyob iste'dod sohibi bo'l mish Muhammad Yusuf bolalik chog'larida sho'x yigit bo'lib, ko'p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf bolalikdan ziyrak, juda qiziquvchan bo'lganligi bois ko'p kitoblarni sevib o'qigan va savollarga javob izlagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq nashriyot – mabaa konserni. 1997. -63 b.

Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: 2011-y.

Karimov. I. A. Barkamol avlod orzusi. –T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1998. 144 bet.

IV. Asosiy adabiyotlar.

Azizzxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y. 200b.

Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.

Axmedova M., Abdurahmonova N., Jumaev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. T.: "Turon-iqbol". 2008-yil.

Божович Л. И. Проблемы формирования личности. –М.: Вронеж 1997 г.

Бондаренко С.М. Проблема формирование познавательного интереса при классно-групповом и программированном обучении: по материалам психолого-педагогической